Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.111
FILOLOGIYA

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIOLOGIYASIDA "OILA" KONSEPTINING MANTIQIY-SEMIOTIK INVARIANTLARI VA MILLIY XOSLANISHI

Nodiraxon Murodjon qizi Shakirova*
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ nodiraxonshakirova03@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek paremiologiyasida "oila" konseptining mantiqiy-semiotik invariantlari va ularning milliy-madaniy xoslanish xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Ishning metodologik asosini G.L.Permyakovning struktur paremiologiya hamda mantiqiy-semiotik invariantlar nazariyasi tashkil etadi. Tahlil jarayonida ikki til paremiya fondidagi lafzan farqli, biroq semantik-mantiqiy jihatdan teng mantiqiy modellarga tegishli maqollar qiyoslanib, ularning milliy variantlanishi va kognitiv-stilistik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar

oila konsepti, paremiologiya, G.L.Permyakov, mantiqiy-semiotik invariant, milliy xoslanish, ingliz va o'zbek tillari.

DOI: 10.5281/zenodo.21743487

KIRISH

Til va madaniyatning uzviy aloqadorligi zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikning markaziy masalalaridan biridir. Har bir xalqning dunyo haqidagi kognitiv qarashlari, milliy qadriyatlari va hayotiy tajribasi uning paremiologik fondida – maqol va matallarida o'zining eng zich hamda barqaror ifodasini topadi. Insoniyat jamiyatining poydevori hisoblangan "oila" konsepti barcha tillarda universal lingvomadaniy shakllanmaga ega bo'lsada, har bir millatning o'ziga xos mentalitetidan kelib chiqib turlicha konseptuallashadi. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillari paremiologiyasida "oila" konseptining namoyon bo'lishini mantiqiy-semiotik va kognitiv-stilistik aspektda qiyosiy o'rganishga bag'ishlanadi.

XXI asrning dastlabki o'n yilligida rus tilshunosligida семья konseptiga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqotlarning butun silsilasi yuzaga keldi va ularning har biri muammoning muayyan qirrasini yoritdi. Janr yo'nalishida oila shajaralari matnlari o'rganilib, konseptning avlodlar xotirasidagi voqelanishi tavsiflandi [1, B. 22] lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan tadqiqotda konseptning yadro-periferiya tuzilishi assotsiativ tajriba va lug'aviy tahlil birligida tiklandi [2, B. 27].

Qiyosiy-chog'ishtirma yo'nalishda ikki tadqiqot alohida ajralib turadi. E.A.Kostrubina семья/дом hamda family/home birliklarini giperkonsept sifatida talqin etsa [3, B. 20], N.N.Zanegina ayni konseptning rus adabiy tilidagi mazmun hajmi va tavsif tamoyillari belgilaydi [4, B, 25]. Leksik-frazeologik obyektivatsiya yo'lidan borgan A.S.Trushinskaya esa rus va ingliz materiali sema tarkibi sathini solishtirilib, mos hamda oppozitiv semalar ro'yxati tuzadi [5, B. 19].

Paremiologik material bilan ishlash metodikasida G.L.Permyakovning struktur paremiologiyasi burilish nuqtasi bo'ldi: olim maqollarni mantiqiy-semiotik invariantlar asosida tasniflab, turli xalqlar paremiyalarini mazmunan qiyoslashning ilmiy tartibotini yaratdi [6, B. 11]. Uning tizimiga ko'ra, bir-biridan lafzan yiroq maqollar yagona mantiqiy modelning milliy variantlari bo'lishi mumkin – masalan, avlodlar o'xshashligi

haqidagi ingliz olma va daraxt obrazi bilan o‘zbek Qazisan, qartasan – asl zotingga tortasan (o‘zbek xalq maqoli) birligi ayni bir invariantning ikki libosidir. Ushbu yondashuv bizning uch bosqichli moslik shkalamizga bevosita uslubiy asos beradi.

Rus psixolingvistikasi oila konseptiga eksperimental yo‘l ochdi: assotsiativ lug‘atda семья stimuliga olingan reaksiyalar uning ong yaqin qatlamidagi bog‘lanishlarini – дом, дети, счастье singari assotsiatlarni qayd etadi [7, B. 585].

Ingliz va o‘zbek tillarida “oila” konseptining leksik-semantik voqelanishi qiyoslanganda, ingliz tilida individualistik dunyoqarash hamda nuklear oila modeli aks etgani holda, o‘zbek tilida kollektivistik an’analar, iyerarxik va yoshga asoslangan qavm-qarindoshlik munosabatlari yetakchilik qilishi namoyon bo‘ladi[8, B. 49].

Ushbu tadqiqotlarning eng salmoqli jihati nazariy apparat – konsept tuzilishi, tahlil bosqichlari, terminologik intizom ekani ayon bo‘ladi. Ayni chog‘da tadqiqotlarning aksariyati lug‘at ta’riflari va so‘rovnoma materiallariga tayanib, badiiy diskursni yordamchi bezak darajasida jalb etadi, vaholanki konseptning eng nozik qadriyat qirralari aynan badiiy matnda ochiladi; qiyosiy juftliklar tanlovi ham bir tomonlama: rus-turkiy, qolaversa, ingliz-turkiy juftliklar sanoqli tadqiqotlargagina nasib etgan [9, B. 54].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Рухленко Н.Н. Концепт «семья» в жанре семейных родословных: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2005. – 22 с.

2. Железнова Ю.В. Лингвокогнитивное и лингвокультурное исследование концепта «семья»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2009. – 27 с.

3. Кострубина Е.А. Гиперконцепт Семья/Дом–Family/Home в русской и английской лингвокультурах:Автореф. дис. канд. филол. наук.–Омск, 2011.–

4. Занегина Н.Н. Концепт «семья» в русском литературном языке и принципы его описания: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2011. – 25 с.

5. Трущинская А.С. Лексико-фразеологическая объективация концепта «семья» в русском и английском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2009. – 19 с.

6. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – С. 11–33.

7. Русский ассоциативный словарь: В 2 т. Т. 1 / Ю.Н. Караулов, Г.А. Черкасова, Н.В. Уфимцева и др. – М.: АСТ–Астрель, 2002. – С. 585.

8. Shakirova N.M. Lexical-semantic verbalization of the family concept in English and Uzbek // Modern Digital Technologies in Education: Problems and Prospects (International Online Conference). – 2026. – P. 49–53.

9. Shakirova N.M. The discursive-semantic and linguo-cultural characteristics of the concept of ”family” in English and Uzbek // Modern Digital Technologies in Education: Problems and Prospects (International Online Conference). – 2026. – P. 54–57.